

O'ZBEK XALQI ETNOMADANIY TAFAKKURI YANGI TENDENSIYALARDA O'ZBEK TILINING YANGILANISHI, SAVODXONLIK ZARURATI

Amonova Nazirabonu Bobir qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15814853>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar doirasida o'zbek tilining rivojlanish holati, yosh avlod savodxonligining oshirilishi, til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik, shuningdek, o'zbek tilining raqamli transformatsiyasi yoritilgan.

Shuningdek, zamonaviy lingvokulturologik yondashuvlar asosida tilning etnomadaniy tafakkurdagi o'rni tahlil qilingan. Prezident farmonlari va davlat siyosati doirasidagi chora-tadbirlar tahlil qilinar ekan, ta'limda tilga bo'lgan munosabat yangi bosqichga ko'tarilayotgani asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: O'zbek tili, savodxonlik, madaniyat, lingvokulturologiya, raqamli transformatsiya, ta'lim siyosati, davlat til siyosati.

ОБНОВЛЕНИЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА, НЕОБХОДИМОСТЬ ГРАМОТНОСТИ И ЭТНОКУЛЬТУРНОЕ МЫШЛЕНИЕ УЗБЕКСКОГО НАРОДА В КОНТЕКСТЕ НОВЫХ ТЕНДЕНЦИЙ

Аннотация. В данной статье рассматривается состояние развития узбекского языка в рамках проводимых реформ в сфере образования, повышение уровня грамотности молодёжи, взаимосвязь языка и культуры, а также цифровая трансформация узбекского языка. Также проанализирована роль языка в этнокультурном мышлении с позиций современных лингвокультурологических подходов. В статье обосновано, что благодаря указам Президента и мерам государственной политики отношение к языку в системе образования поднимается на новый уровень.

Ключевые слова: Узбекский язык, грамотность, культура, лингвокультурология, цифровая трансформация, образовательная политика, государственная языковая политика.

THE RENEWAL OF THE UZBEK LANGUAGE, THE NECESSITY OF LITERACY, AND THE ETHNOCULTURAL THINKING OF THE UZBEK PEOPLE IN THE CONTEXT OF NEW TRENDS

Abstract. This article discusses the development of the Uzbek language within the framework of educational reforms, the improvement of youth literacy, the intrinsic connection between language and culture, as well as the digital transformation of the Uzbek language. It also analyzes the role of language in ethnocultural thinking through the lens of modern linguocultural approaches. The article substantiates that, through presidential decrees and state policy measures, the attitude toward language in the education system is reaching a new level.

Keywords: Uzbek language, literacy, culture, linguoculturology, digital transformation, educational policy, language policy.

Kirish. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlarning markazida milliy g'ururimiz – o'zbek tilining nufuzi va amaliy mavqeyini mustahkamlash, uni har bir fuqaroning ongli ehtiyoji darajasigacha ko'tarish vazifasi turibdi. Xususan, yosh avlodning savodxonligini oshirish, davlat tilini chuqur o'rganish va ilmiy-ma'rifiy muhitda faol qo'llashga yo'naltirilgan qarorlar ushbu yo'nalishning strategik yo'l xaritasini belgilab bermoqda.

Asosiy qism. Jahon lingvistikasida madaniy globallashuv jarayonlarining rivojlanishi doirasida to'laqonli madaniyatlararo muloqotlar olib borishga bo'lgan qiziqish shiddat bilan kuchayib bormoqda. Tildagi madaniylashuv jarayoni shu xalq tafakkuri mahsuli ekanligi bois mazkur masalada tilshunoslik sohasida diqqatga sazovor ishlar amalga oshirilmoqda. Til va madaniyat uzoq davrlardan buyon bir-birini taqozo etuvchi hodisa sifatida daliliy misollarga tayangan holda, ma'lum xalqning etnomadaniy tafakkurini badiiy va so'zlashuv nutqiga oid materiallar asosida izohlash dolzarb vazifalardan sanaladi. Dunyo tilshunosligi vakillarining ayrimlarida til va madaniyatning aloqasi, o'zaro shartlanganligi bugun shubha uyg'otmoqda.

Ayrimlarning nuqtayi nafari, dunyoqarashi esa odamlar didi va jamiyatga munosabatlarini shakllantiradi, shuningdek, xalqlarning o'ziga xosligini avloddan avlodga yetkazuvchi, boshqa xalqlarga ham tarqatuvchi til va madaniyatning saqlanishini ta'minlaydi, jamiyat faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladi. Lingvokulturologik tadqiqotlar doirasida til va madaniyatning etnomadaniy tafakkurni shakllantirish borasidagi ahamiyatiga bo'lgan qiziqish, tadqiq doirasining torligi, bizningcha, zamonaviy lingvokulturologiyaning asosiy kamchiliklaridan biridir. Bu borada lingvistik tadqiqotlar ko'lamini oshirish ayni kunning dolzarb vazifalaridandir. Mamlakatimizda lingvokulturologiya hamda sharqshunoslik sohasidagi mana shunday kamchilikni to'ldirish maqsadida til va madaniyatni o'zbek xalqi etnomadaniy tafakkurini namoyon etuvchi shakllardan biri sifatida o'rganishga harakat qilinmoqda.

Avlodlar davomiyligini, o'zbek xalqi etnomadaniy tafakkuri rivojining qonuniyligi va tendensiyalarini o'zbek adabiyoti asarlaridan o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. "Eng katta boylik – aql va ilm, eng katta meros – yaxshi ta'lim, eng katta qashshoqlik – ilmsizlikdir".[1, B-2.] Shunga asosan, zamonaviy bilimga, yuksak madaniyatga intilish mamlakatning barcha fuqarolari uchun hayotiy zaruratga aylanishi lozim. Mazkur tadqiqotda bilimlardagi bo'shliq va tarjima amaliyotidagi nomukammallikni bartaraf etishga, shuningdek, ushbu muammoga bag'ishlangan ilmiy ishlarni aktallashtirib, ularga turtki berishga harakat qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari fikrimiz asosidir.

G'arb tilshunosligida madaniyatlararo muloqot hamda til va madaniyat munosabatlari faol tadqiq etilmagan. R.B.Adler, G.Rodman, A.du Pré, T.K.Gamble, M.Gamble, W.B.Gudykunst va P.Holmes singari olimlarning ishlari maorif tashkilotlari shakllanishining zamonaviy imkoniyatlarini globallashuv sharoitida madaniyatlararo muloqot olib borishning ustuvorligini rivojlantirish, shuningdek, turli madaniyatlar vakillari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish hamda maromga solish mexanizmini aniqlash imkonini beradi.

O'zbek tilshunosligida o'zbek tili va madaniyati tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy ishlar olib borilmagan bo'lsa-da, til va madaniyat to'g'risida bildirilgan fikrlarni, lingvokulturologiyaga bag'ishlangan tadqiqotlarda uchratish mumkin. Bu borada N.Mahmudov, M.Mirtojiyev, A.E.Mamatov, Sh.Safarov, M.Yo'ldoshev, M.Saidov, U.Qo'ziyev, D.Teshaboyeva, Sh.Usmonova kabi olimlarning xizmatlari beqiyos.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilayotgan "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasida o'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomini mustahkamlash, uni ilmiy, texnologiya va xalqaro maydondagi dolzarb tillar qatorida barpo etish asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilangan.

Davlat tili – bu millatning ma'naviy ustuni, xalqning tarixiy xotirasi va birligi ramzidir.

Uni chuqur o'rganish, har bir fuqaroning hayotiy zaruratiga aylanishi kerak. Bu hujjatlarda belgilangan vazifalar ta'lim muassasalaridagi til siyosatini tubdan o'zgartirish, o'zbek tilini zamonaviy didaktika asosida o'qitish, o'quvchilarda ongli til madaniyatini shakllantirishga zamin yaratdi.

Ta'limda savodxonlik darajasining oshirilishi – milliy taraqqiyot garovi. Yoshlarning savodxonlik darajasi – har bir jamiyatning madaniy, iqtisodiy va siyosiy salohiyati bilan chambarchas bog'liqdir. Mamlakatda 2021-yildan buyon bosqichma-bosqich joriy etilayotgan "O'quvchilarda funksional savodxonlikni oshirish dasturi" o'zbek tilini chuqur o'rgatish orqali tanqidiy fikrlash, matn ustida ishlash, tahliliy yondashuv kabi muhim kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

Bugungi kunda o'quvchilarning o'zbek tilida:

- o'z fikrini aniq ifodalashi;

- matnni tahlil qilishi;

- ilmiy-uslubiy adabiyotlardan foydalanishi kabi ko'nikmalari eng muhim kompetensiyalar sifatida baholanmoqda. Bu esa ta'limda o'zbek tilining funksional va amaliy rolini sezilarli darajada oshiradi.

O'zbek tilini raqamli transformatsiya jarayonlariga integratsiyalash Prezidentning 2023-yil 21-fevraldagi "O'zbek tilining raqamli infratuzilmasini rivojlantirish to'g'risida"gi qarori asosida tilni sun'iy intellekt, raqamli platformalar va interaktiv dasturlar orqali rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ta'lim sohasida bu jarayon quyidagicha aks etmoqda:

- Elektron darsliklar va o'zbek tilida mobil ilovalar joriy etilmoqda;

- O'qituvchilar uchun raqamli metodik qo'llanmalar ishlab chiqilmoqda;

- Onlayn testlar va baholash tizimlari til asosida ishlab chiqilmoqda.

Bu jarayonlar o'zbek tilining zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan uyg'unlashuvini ta'minlab, uning yoshlar ongida zamonaviy, ilg'or til sifatida qaralishiga asos yaratmoqda.

O'qituvchilar va tilshunoslar zimmasidagi mas'uliyat Til – avvalo o'rgatiladi, keyin esa yashatiladi. Shu bois, zamonaviy o'zbek tili o'qituvchisi:

- tilni nafaqat qoidaviy, balki mantiqiy-tahliliy yondashuv orqali o'rgatishi;

- estetik zavq va ifoda madaniyatini singdirishi;

- til orqali ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani yo'lga qo'yishi zarur.

Ta'lim sifatining asosi bo'lgan o'qituvchilar malakasini oshirish, ularni yangi metodik yondashuvlarga yo'naltirish uchun 2024-yilda tashkil etilgan "O'zbek tilini o'qitish milliy markazi" faoliyati muhim o'rin tutmoqda.

Xulosa. Ta'limda o'zbek tilini rivojlantirish – bu faqat lingvistik masala emas, balki butun jamiyatning tafakkur, madaniyat va tafsir salohiyatini oshirishga qaratilgan yirik milliy harakatdir.

Davlat siyosati, zamonaviy texnologiyalar, metodik yondashuvlar va o'qituvchi shaxsiyati bu jarayonning to'rtta tayanch ustuni sifatida qaralmoqda.

Yoshlar savodxonligi esa – kelajak avlodning dunyoqarashi, tahlil qobiliyati, muloqot madaniyati va ijtimoiy faolligini belgilovchi eng muhim omildir.

O'zbek tilini rivojlantirish orqali biz faqat tilni emas, balki yosh avlod tafakkurini ham yuksaltiramiz. Bu esa – mustaqil davlatning ma'naviy va ilmiy suverenitetini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi// <https://uza.uz/ru/>
2. Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари ва излаб...// Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2012. –№ 5. –Б. 10.
3. Маҳмудов Н. Тил. –Тошкент: Ёзувчи, 1998. –Б.3.
4. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent, 2008. – 318 b
5. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. –Toshkent, 2008.
6. Mirtojiev M., Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent: Yozuvchi, 1991.
7. Mamatov A.E. Lingvomadaniyatshunoslik. Lingvokulturema va logoepistema. Xorijiy filologiya. – Samarqand: SamDCHTI, 2015. – № 1. – B. 100-102.
8. Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika. Toshkent: Noshir, 2019. –168 b.
9. Saidova M., Qo'ziyev U. Lingvokulturologiya: Namangan, 2017. – 51 b.
10. Teshabayeva D.M. Ommaviy axborot vositalari tilining nutq madaniyati aspektida tadqiqi (O'zbekiston Respublikasi OAV misolida). Filol. fan. d-ri. ...diss. – Toshkent, 2012.
11. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019. – 245 b.
12. Абдираззаков А.А. Национальные духовные ценности и их место в самосознании нации: Автореф. дис. ... канд. филос. наук. – Ташкент, 1995. – С. 24.
13. Абдурахимов Б. Социодинамика художественной культуры Узбекистана: Автореф. дис. ...докт. искусствовед. наук. – Ташкент, 2000. – С. 44
14. Гарипова Г.Т. Концептуальные тенденции развития узбекской литературы конца XX – начала XXI вв. // Ziyouz.uz.